



Universitetlarning ekologiyaga ta'sirining me'zonlari

Abbosova Aziza Orif qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti talabasi

aabbosova800@gmail.com

Annontatsiya: Mazkur maqolada mavzuni bayon etishning turli xil metodlaridan foydalanilgan holda universitetlarning atrof-muhitga ta'sirini baholash mezonlarini ilmiy-nazariy tahlil qilgan. Ushbu maqolaning maqsadi universitetlarning atrof-muhitga ta'sirini baholash, ularga umumiy tasnif berish, ularni tahlil qilish va xulosalar berishdan iborat. Bugungi kunda ekologik muammolar dolzarb masala bo'lib kelmoqda, ushbu vaziyatda universitetlarning ekologiyaga qanday holatda ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatlar va ularning ta'sir doirasi qanday oqibatlarga olib kelishi haqida batafsil yoritilib o'tilgan. Barcha kompaniyalar shu jumladan universitetlarning ham atrof-muhitga ta'sirini oldini olish va ijobiy ta'sir ko'rsatishning turli xil usullarini ham ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: ekologik muammolar, ta'lim sektori, energiya sarfi, baholash mezonlari, ekologik holat, chiqindilar, plastik chiqindilar, zaharli gazlar, urbanizatsiya ko'rsatkichi, havo ifloslanishi.

Аннотация: В данной статье критерии оценки воздействия вузов на окружающую среду были научно и теоретически проанализированы с использованием различных методов описания темы. Цель данной статьи – оценить влияние университетов на окружающую среду, дать им общую классификацию, проанализировать их и дать выводы. Сегодня экологические проблемы становятся актуальным вопросом, в этой ситуации подробно освещены обстоятельства, при



которых университеты могут влиять на окружающую среду, и последствия их влияния. Мы также рассмотрим различные способы, с помощью которых все компании, включая университеты, могут предотвратить и оказать положительное влияние на окружающую среду.

Ключевые слова: экологические проблемы, сфера образования, энергопотребление, критерии оценки, состояние окружающей среды, 1 отходы, пластиковые отходы, токсичные газы, показатель урбанизации, загрязнение воздуха.

Abstract: In this article, the criteria for evaluating the impact of universities on the environment have been scientifically and theoretically analyzed using various methods of describing the topic. The purpose of this article is to evaluate the impact of universities on the environment, give them a general classification, analyze them and give conclusions. Today, environmental problems are becoming an urgent issue, in this situation, the circumstances in which universities can affect the environment and the consequences of their influence have been covered in detail. We will also consider various ways that all companies, including universities, can prevent and have a positive impact on the environment.

Key words: environmental problems, education sector, energy consumption, assessment criteria, environmental status, waste, plastic waste, toxic gases, urbanization indicator, air pollution.

Rivojlanayotgan hozirgi davrda ilm fanga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. Ilm fanning asosiy o'chog'i bo'lgan universitetlar ham tabiiyki yildan- yilga ko'payib bormoqda. Har yili butun dunyoda millionlab universitetlar o'z faoliyatini boshlaydi. Misol sifatida o'zimizning O'zbekistonni oladigan bo'lsak, hozirgi kunda bizda



jami 60 ta yoki undan ko'p universitet va institutlar mavjud. Albatta bu natija bilan bu ta'lim dargohi O'zbekistonda eng shakllanib borayotgan maskan bo'lib qolmoqda.

Shuni hisobga olishimiz kerakki universitetlarning yildan-yilgi ortishiga albatta yosh avlodning bilim olishga bo'lgan qiziqishi sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari aholi soning yildan yilga ortishi universitetlarga bo'lgan talabni oshirmoqda. Yangi universitetlar yildan-yilga ko'paygani bilan bir qatorda oldin mavjud bo'lgan universitetlarning filiallari va qo'shimcha binolari ham yildan yilga ko'paymoqda. Misol uchun o'zimizning yuridik universitetni oladigan bo'lsak, oldin bitta bo'lgan binosi hozirgi kunda 4 ta bo'lgan. Shunday bo'lishiga qaramay, o'quvchilarni ushbu binolar joylashtirish bilan bog'liq muammolar hali ham vujudga kelmoqda.

Bundan tashqari universitetlar o'z o'quvchilariga yetarli shart-sharoit yaratish maqsadida talabalar turar joylari tashkil etishadi. Bu ham o'z navbatida yetarlicha o'rin egallaydi. Keling endi universitetlarning ekologiyaga ta'sirining asosiy me'zonlarini chuqurroq o'rganib chiqamiz.

Energiya bu hayotimizning ajralmas qismi. U siz umrimizning bir daqiqasini ham tassavur qila olmaymiz. Hozirgi zamon shuni talab etmoqda. Energiyasiz shaharlarda hayot to'xtab qolganday go'yo. Bizning hayotimizni ajralmas aylangan bu resursni ishlab chiqarishning ham o'z mashaqqatlari bor albatta. Shu sababli ham xalqimizda energiyani tejang degan naql yuradi. Ammo biz yuqorida sanab o'tgan bilim dargohlari bu resursdan juda ko'p miqdorda foydalanadi. Chunki Universitetlarning xalqaro standartlarida xonalarning keng va yoruq. Elektr energiyasi bilan yetarlicha ta'minlagan. O'quvchi foydalanishi uchun zamonaviy texnologiyalari mavjud bo'lishi belgilab o'tilgan. Bu o'z o'rnida shuni keltirib chiqadiki, universitetlar jamoaga beriladigan juda ko'p elektr energiyani bir yilda sarflashga ulgurishadi. Shu yo'l bilan ular ekologiyaga juda jiddiy zarar yetkazishadi.



2006 yilda Koreyada universitetlarning energiya isʼtemoli boʻyicha The energy consumption of domestic institutions¹² deb nomlangan maqola chiqarilgan boʻlib unda Universitetlarni energiya juda koʻp miqdorda isʼtemol qilishi va korbonad angridni juda koʻp miqdorda atmosferaga chiqarib yuborilishida asosiy sababchi deb topilgan . Oʻsha paytning oʻzida ular milliy elektr energiyasini jami 13,7% sarflashgan . Togʻri bu koʻrsatkich hozirgi kunda kamdek koʻrinishi mumkin ammo oʻsha paytda bu koʻrsatkich ancha yuqori boʻlgan . Hozirgi davrda bu koʻrsatkich anchaga koʻtarilgan.

Bundan tahqari universitetlarning isitish va sovitish tizimi ham elektr qilish energiyasini juda koʻp qismini shu sohaga sarflanishiga olib kelmoqda. Yuqoridagi misollar va keltirgan fikrlarimiz shuni koʻrsatadikki, universitetlar tashkil paytida yoki boʻlmasam hozirgi qayta taʼmirlanayotgan universitetlar davlatning tegishli organiga oʻz loyihasida elektr energiya manbasini qayerdan olishlari hamda uni qanday maqsadda sarflanayotganligi haqida maʼlumot berib oʻtishlari hamda oʻsha loyihani tez fursatlar ichida amalga oshirishlari zarur. Chunki elektr energiyasi garchi qayta tiklanadigan energiya boʻlsada biz uni asrab ishlatmogʻimiz lozim.

Oʻzingizga maʼlum katta shaharlarda doim juda katta tirbandliklar yuz berib turadi. Bunga oʻsha shaharning urbanizatsiya koʻrsatkichi yuqori ekanligi taʼsir qiladi. Urbanizatsiya darajasini oshishiga juda koʻp hollarda qishloqdan va boshqa shaharlardan universitetda oʻqish uchu kelayotgan talabalar ham sabab boʻlishi mumkin. Kichkina shaharlarda joylashgan universitetlarda transport bilan muammo boʻlmasligi mumkin. Chunki bunday shaharlarda insonlar piyoda yurish yoki sayr qilish orqali oʻz manzillariga yetishi mumkin ammo katta shaharlarda shaharning bir chekkasida ikkinchi chekkasiga joylashgan yerga boorish uchun bir nechta transport vositasida foydalanishga toʻgʻri keladi. Bu esa bir vaqtning oʻzida juda katta tirbandlikka hamda havoga juda koʻp zaharli galar tarqalishiga olib keladi.



Avtomobillar ajratadigan zaharli gazlar tarkibida 200 ga yaqin birikmalar boʻlib, ularning aksariyat qismi zaharli gazlar hisoblanadi. Ular nafaqat ichki organlariga balki uning asab tizimiga ham juda jiddiy taʼsir qiladi olimlarning fikrlashicha shaharlarda hamda qishloqlarda yashovchi insonlar oʻrtasida juda katta farq mavjud boʻlib bunga asosiy sabab ikki joyning oʻrtasidagi ekologik muhit farqi bilan bogʻliq. Inson qancha toza havodan bahramand boʻlsa miyya ishlash faoliyati shunchalar barqororlashadi.

Dunyoning juda katta davlati boʻlgan Xitoyni misol qilib oladigan boʻlsak. Xitoyning oʻzida oʻtkazilgan 30 yillik tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadikki universitetlar qishloqda yashayotgan juda koʻp sonli aholini ayniqsa yosh avlodni shaharlarga kelib joylashishiga sabab boʻlmoqda³. Albatta kelib qoʻshilgan aholi doimo harakatda boʻlib tub aholiga qoʻshilib ketadi. Shunday qilib bir vaqtning oʻzida transportdan foydalanadiganlar soni ortib ketadi. Universitetlar shu yoʻl bilan ekologiyaga taʼsir oʻtkaza oladi.

Ammo qancha muammo boʻlsa ham u bir kun albatta oʻz yechimini topa oladi. Chunki agar biz tadqiqotlarga tayanadigan boʻlsak talabalarning koʻpchiligi mablagʻ yetishmasligi sababidan ham jamoat transportlaridan foydalanishadi. Togʻri tigʻiz paytda jamoat transportlaridan foydalanish bir necha noqullayliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunga biz asoslantirilgan ikki yechim bermoqchimiz. Albatta bu yechimlar Vladimir Valdin tomonidan taklif etilgan. Birinchi navbatda transport qatnovini tezlashtirish, ikkinchisi esa yana koʻproq jamoat transportlarni sotib olish. Birinchi yoʻl ikkinchi yoʻlga qaraganda mablagʻ sarf etilishi kamaytiradi.⁴ Ammo birinchi yoʻlning amalga oshishi koʻproq jamoat transport boshqaruvchi insonlarga bogʻliq boʻlib qoladi. Chunki jamoat transport bir kunda qancha koʻp odamga xizmat koʻrsatsa shuncha koʻp mablagʻ ega shu sababli ham baʼzi paytlarda jamoat transportlari bekatlarda juda koʻp vaqt toʻxtab yoʻlovchi kutishadi. Bu esa boshqa bekatda kutib turgan boshqa yoʻlovchilarni juda koʻp miqdorda kutib qolishlariga oqibatda boshqa yengil avtomashinalarga minib oʻz manzillariga yoʻl olishlariga majbur qilib qoʻyadi. Shu sababli ham biz ikkinchi yoʻlni



tanlaganimiz maʼqul. Bu bir tarafdin yangi olib kelingan jamoat transportlari gaz yoki tabiiy yoqilgʻi bilan harakatlanmasdan balki elektr energiyasida foydalanishlari havoning ifloslanishi ancha kamaytiradi. Shu bilan biz universitetlarning transport bilan bogʻliq boʻlgan muammolariga yechim bera olamiz

1. Universitet tomonidan chiqarilayotgan chiqindilarni boshqarish

Taʼlim sektori har yili 700 000 tonnaga yaqin chiqindilarni ishlab chiqarsa, taxminan 250 000 tonnasi faqat universitetlar tomonidan ishlab chiqariladi . Agar bu chiqindilar toʻgʻri yoʻq qilinmasa, atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin. Lekin bu hammasi halokat va gʻam emas; universitetlar yordam berish uchun qoʻllaridan kelganini qilmoqdalar va qila oladilar

Birinchi navbatda universitetlar qanday chiqindilar ishlab chiqishini hisobga olishimiz lozim. Universitetlar katta miqdordagi qogʻoz chiqindilarini ishlab chiqaradi. Qogʻoz chiqindilarini ishlab chiqarishda universitetning turli xodimlari, professor-oʻqituvchilari va oʻqituvchilari boʻlmagan xodimlar va talabalar katta rol oʻynaydi . Bunga ortiqcha bosib chiqarish, nusxa koʻchirish va keraksiz qogʻozlardan foydalanish, masalan, maʼruza matnlarini chop etish sabab boʻlishi mumkin. Bundan tashqari, koʻpgina universitetlar bir marta ham ochib oʻqilmaydigan katta hajmdagi qogʻozli pochta va hujjatlarni oʻzlariga har haftada qabul qilib oladi.

Keyingi navbatda albatta oziq-ovqatlar. Har kuni universitet oshxonasidan juda katta hajmda boshqalardan qolib ketgan ovqatlar olib chiqib ketishadi. Albatta bularning barchasi chiqindiga aylanadi. Bu chiqindilarni agar qishloq xoʻjalik hayvonlariga yetarli vaqtda yetkaza olmasak, ula ekologiyaga zararli boʻlgan bakteriyalarga aylanishi mumkin.

Plastik chiqindilarni oʻquv binolari , zallar va maʼmuriyat idoralarida juda koʻp topish mumkin. Masalan, suv idishlari, oziq-ovqat qadoqlari, , aralashtirgichlar, oziq-ovqat mahsulotlari uchun plastik qoplar va hatto tadbirlarda, partiyalar yigʻilisjida va konferentsiyalarda stakan, idish-tovoq va plastinka kabi plastmassalar. Nottingham



universiteti har yili chiqindi sifatida 1,5 milliondan ortiq plastik ichimlik idishlari va bir martalik kofe stakanlarini tashlaydi. Bu shuni keltirib chiqadikki hech qachon yerga singib ketmaydigan plastik idishlardan nafaqat dengizdagi suv osti hayvonot dunyosi balki dunyoning chekka-chekka joylarida yashayotgan kambagʻal aholi aziyat chekadi.

Universitetlar, masalan, eskirgan kompyuter uskunalari, mobil telefonlar va boshqa elektron qurilmalar, batareyalar kabi juda koʻp elektron chiqindilarni ishlab chiqaradi. Ayrim turdagi universitetlar, shuningdek, laboratoriyalar, tibbiyot muassasalari va boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalaridan xavfli chiqindilarni ishlab chiqarishi mumkin. Darhaqiqat Hindistonda juda achinarli holat yuz bergan yaʼni universitet binosining tom qismida laboratoriya uchun olib kelingan juda koʻp insonlar jasadlari topilgan. Tibbiyot sohasida oʻqiyotganlar uchun albatta vafot etgan hamda hech qanday yaqini boʻlmagan insonlarning boʻlishi juda qulay vaziyat hisoblanadi. Tibbiyot universiteti talabalari vafot etgan shaxsning tana aʼzolari batafsil koʻzdan kechirishadi . Ammo koʻzdan kechirib boʻlingandan soʻng ularni munosib tarzda dafn etilishi lozim. Ammo bunday boʻlmagan. Oqibatda oʻsha shahar hududining ekologiyasi juda qattiq zarar koʻrgan. Yoki boʻlmasam laboratoriyalarda kashf etilgan ammo inson hayoti uchun xavfli boʻlgan dorilarga toʻxtaladigan boʻlsak. Ular kimyoviy tarzda yoʻq qilinmasdan balki chekka joylarga borib toʻkib yuboriladi. Yaʼni ular kimyoviy darajada zararsizlantirilmaydi. Oqibatda turli yuqumli kasalliklar kelib chiqadi.

Hoʻsh universitetlar shuncha chiqindilar ishlab chiqarar ekan endi nima qilamiz ularni shunchaki yopib yuboramizmi? Yoʻq har bir narsani yechimi bor deb biz yuqorida ham taʼkidlab oʻtgan edik. Demak , biz universitet oshxonalaridan chiqayotgan sotilmay qolib ketgan ovqatlarni arzon narxlarda sotib yuborishimiz mumkin. Laboratoriyalardan chiqayotgan kimyoviy moddalarni atrof-muhitga tashlash oʻrniga ularni laboratoriya zararsizlantirish usullarini oʻylab chiqishimiz lozim. Shu usullar bilan universitetlarda chiqayotgan chiqindilarni atrof muhitga jiddiy zarar berishini oldini olib qolamiz.



Bundan tashqari universitetlarni atrof muhitga ta'sir qiladigan yana bir nechta mezonlari mavjud bo'lib bular:

1. Suvdan foydalanish va tejamkorlik: Bu mezon universitetning suv iste'moli, suvdan foydalanishda samaradorlik choralari, suvni tejash harakatlari va oqava suvlarni tozalashga qaratilgan. Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va xabardorlik kampaniyalarini rag'batlantirish barqarorlikni ta'minlashga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

2. Biologik xilma-xillikni saqlash: Universitetlar o'z kampuslarida yashil maydonlarni va tabiiy yashash joylarini saqlash va tiklash orqali mahalliy biologik xilma-xillikni saqlashda rol o'ynashi mumkin. Ularning bu boradagi sa'y-harakatlarini baholash ularning ekologiyani asrashga bo'lgan sadoqatini yoritishi mumkin.

3. Mahalliy hamjamiyat va tashkilotlar bilan hamkorlik: Universitetlar mahalliy tashkilotlar va jamoalar bilan ekologik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun hamkorlik qilishi mumkin. Bu atrof-muhit muammolarini birgalikda hal qilish uchun akademik tadqiqot markazlari, davlat idoralari va mahalliy jamoalar bilan hamkorlikni o'z ichiga olishi mumkin.

Xulosa Biz yuqorida universitetlarning hozirgi kunda atrof-muhitga qanday zarar yetkazayotganini birma-bir ko'rib chiqdik. Ko'rib chiqqan masalalarimizga qarab baho beradigan bo'lsak, universitetlar atrof-muhitga juda jiddiy zarar berayotgandek tuyilishi mumkin. Ammo bir narsani hech qachon yodimizdan chiqarmog'imiz lozim "har bir narsaning yaxshi tomoni bo'lgani kabi yomon tomoni ham mavjuddir". Bu dunyoda hech narsa boshidan mukammal bo'lmaydi. Muammolar bo'lmasa edi bizning hayotimiz yaxshilanmas edi. Vujud kelgan hamda vujudga keladigan muammolarga yechim berish orqali biz hayotimizni yanada yaxshiroq qilishimiz mumkin. Yoki bo'lmasam o'sha muammolarni vujudga kelishini oldini olishimiz lozim. Aytishadi ku kasal davolashdan ko'ra uni oldini olish zarur. Biz ham boshqa rivojlangan davlatlar tajribasidan o'rnak olgan



holda ekologiyamizga taʼsir qilishi mumkin boʻlgan salbiy omillarni oldini olishimiz lozim. Toki universitetlardan chiqayotgan chiqindilari havo ifloslanmasligi uchun , tirbandliklar sabab bemorlar olamdan koʻz yummasliklari uchun energiyaning katta qismi universitetlarga sarflangani bois qishloqlarda aholi elektr-energiyasi va gazsiz hayot kechirishi jimgina kuzatmaslik uchun biz bu mummolarga yuqorida koʻrsatilgan yechimlarni kerak boʻlsa undanda yaxshilarni hayotga tatbiq etishimiz lozim. Bu maqolani yozar ekanmiz. Undagi muammolar hozir atrofimizda sodir boʻlayotgan boshqa muammolar oldida juda ahamiyatsizdek koʻrinishi mumkin. Ammo barcha yirik talofatlar ahamiyatsiz narsalardan boshlanadi. Shu sababli ham universitetlarni ekologiyaga hozir berayotgan talofatlarini hozir bartaraf etmogʻimiz lozim

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ekologiya huquqi. Darslik. /Mas'ul muharrir: M.B. Usmonov. -T.: TDY1 nashriyoti, 2006. -361 bet
2. Sustainability, MDPI, vol. 13(22), pages 1-17, November. Case Studies on Transport Policy Volume 7, Issue 1, March 2019, Page 47
3. <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/IJSHE-07-2017-0114/full/html>
4. Chop etuvchi :Emerald Publishing Limited Copyright © 2018, Florian Findler, Norma Schönherr, Rodrigo Lozano, Daniela Reider and André Martinuzzi
5. Transport siyosatiga oid misollar 7-jild, 1-son, 2019 yil mart , 47 bet
6. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2213624X18302463>
7. https://www.researchgate.net/publication/356263514_The_Impacts_of_Transportation_Sustainability_on_Higher_Education_in_China
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/17/tashkent-transport-system/>
9. <https://www.hills-waste.co.uk/sectors/education/university-waste-management>
10. <https://www.sciencedirect.com/topics/engineering/domestic-energy-consumption>